NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Narzullaev Nozimjon Sobirjonovich
I.f.n. Dotsent
Namangan davlat universiteti Menejment kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Namangan viloyatida turizm xizmatlarining rivojlanish holati, mavjud muammolari va istiqbollari ilmiy tahlil qilingan. Hududning tabiiy, madaniy va ziyorat salohiyati asosida turizmni klasterlash, xizmat sifati va infratuzilmani takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm, xizmatlar sohasi, Namangan viloyati, klasterlash, agroturizm, raqamli xizmatlar, SWOT tahlil.*

Bugungi kunda turizm dunyo miqyosida jadal rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida iqtisodiy o'sish va xizmatlar bozorining kengayishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ–4095-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2019–2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi"da mamlakat hududlarining o'ziga xos turistik salohiyatidan samarali foydalanish belgilangan[1]. Namangan viloyati ham o'zining tabiiy resurslari, ziyorat ob'ektlari va hunarmandchilik an'analari bilan alohida o'rin tutadi. Shu sababli, viloyatda turizm xizmatlarining joriy holati, muammolari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Turizm sohasining hududiy rivojlanishi ko'plab ilmiy maktablar tomonidan o'rganilgan. Masalan, D. Getz turizmni mahalliy resurslarga asoslangan kompleks tizim deb ta'riflab, infratuzilma, xizmat sifati va boshqaruv salohiyatini asosiy omillar sifatida ko'rsatgan [3]. M. Porter esa klaster nazariyasi asosida bir hududda turizm, transport, savdo va boshqa sohalarning sinergiyasi orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi [4].

O'zbekiston sharoitida esa davlat tomonidan qabul qilingan "Milliy turizm dasturi", UNWTO hisobotlari, hamda mahalliy statistika ma'lumotlari asosiy manbalarni tashkil etadi [1][2][6].

O'zbekistonning "2023–2026 yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasi"da har bir hududning ixtisoslashuviga ko'ra turizm klasterlari tashkil qilish, yoshlar bandligini ta'minlash va ekologik turizmga e'tibor qaratish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan[5].

UNWTO (Jahon sayyohlik tashkiloti) hisobotlarida, sayyohlar eng ko'p tanlaydigan omillar ichida xizmat sifati, xavfsizlik, raqamli imkoniyatlar mavjudligi va madaniy tajriba ajralib turadi.

- Namangan viloyati o'zining tabiiy go'zalliklari va madaniy merosi bilan ajralib turadi. 2023-yilda viloyatga kelgan sayyohlar soni – 184 ming nafardan oshgan bo`lsa, 2024-yilga kelib, 9,4% o'sish kuzatilgan. Turistlar eng ko'p tashrif buyurgan joylar: Chodak, Bobodavlat, Kosonsoy hududlari hisoblanadi[6].

Hududda bir nechta istiqbolli turizm yo'nalishlari mavjud:

✓ **Tabiiy turizm:** Chodak, Chortoq, G'ova, Shahand kabi tog'li hududlar tog' sayohatlari, eko-dam olish va sport-turizm uchun qulay sharoitlarga ega.

✓ **Ziyorat turizmi:** Bobodavlat, Oltinkon, Kosonsoyda joylashgan qadamjolar sayyohlarni jalb qilish imkoniyatiga ega.

✓ **Madaniy va hunarmandchilik turizmi:** Yangiqo'rg'on va To'raqo'rg'on tumanlarida ipak to'qish, adras va atlas tayyorlash an'analari rivojlangan bo'lib, bu yo'nalishda milliy brendlar shakllanishi mumkin.

✓ **Agroturizm:** Kosonsoy va Pop tumanlaridagi mevali bog'lar va fermer xo'jaliklari turistlar uchun qiziqarli agro-turlarni tashkil etish imkonini beradi.

Namangan viloyatida turizm xizmatlarini rivojlantirish istiqbollaridan biri sifatida turizm klasterlari modelini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, Chodak–Chortoq–Shahand yo'nalishida sog'lomlashtirish va ekoturizmga ixtisoslashgan hududiy klasterni shakllantirish orqali quyidagi yo'nalishlarda amaliy natijalarga erishish mumkin: birinchidan, zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan uchta to'liq jihozlangan dam olish maskanlarini tashkil etish; ikkinchidan, mahalliy aholi vakillarini turizm gidligi bo'yicha tayyorlashga ixtisoslashgan o'quv markazini ochish; uchinchidan, "Visit Namangan" brendi ostida yagona marketing platformasini ishlab chiqish va xorijiy hamda mahalliy bozorlarga yo'naltirish.

1-jadval

Namangan viloyatining turizm salohiyati: SWOT tahlil

Kuchli jihatlar	**Zaif jihatlar**
Tog'li hududlar, ekoturizm uchun sharoitlar	Infratuzilma zaif (yo'llar, transport)
Ziyorat joylari ko'pligi	Xizmat sifati past
Hunarmandchilik an'analari	Marketing va raqamli tanitish sust

Imkoniyatlar	Tahdidlar
Xalqaro hamkorlik va investitsiya	Ekologik muvozanat buzilishi
Farm stay va agro-turlarni joriy qilish	Malakali kadrlar tanqisligi

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni turizm xizmatlariga keng joriy etish orqali sayyohlar uchun qulayliklarni oshirish imkoniyati mavjud. Jumladan, “Explore Namangan” nomli mobil ilovani yaratish, unda mehmonxonalar, diqqatga sazovor joylar, ovqatlanish shoxobchalari va gid xizmatlari haqida batafsil ma’lumotlarni joylashtirish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, turistik xizmatlar uchun onlayn bron qilish tizimini ishga tushirish hamda qadamjolar va tarixiy obidalarni virtual reallik (VR) texnologiyalari orqali namoyish qilish orqali viloyat turizmining raqamli transformatsiyasiga erishish mumkin.

Namangan viloyati turizm salohiyati bo’yicha O’zbekistonning eng istiqbolli hududlaridan biridir. Tabiiy, madaniy va ziyorat turizmi yo’nalishlari mavjud bo’lsa-da, infratuzilma, xizmat sifati va raqamli imkoniyatlar bo’yicha qator muammolar mavjud. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, quyidagi choralarni amalga oshirish orqali viloyatni yirik turistik markazga aylantirish mumkin:

- Turizm klasterlarini shakllantirish;
- Agroturizm va farm stay loyihalarini kengaytirish;
- Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash;
- Raqamli xizmatlar va marketing platformalarini yaratish.

Bu orqali hududda iqtisodiy faollik oshadi, yangi ish o’rinlari yaratiladi va xalqaro maydondagi ijobiy imidj mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4086-son qarori (2019-yil) – Turizmni rivojlantirish bo’yicha strategiya.
2. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) 2023-yilgi global hisobotlari.
3. Getz, D. (2008). Event tourism: Definition, evolution, and research. Tourism Management.
4. Porter, M. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Macmillan.
5. Uzbekistan Tourism Committee. (2023). Annual Tourism Development Report.
6. Namangan viloyati hokimligi rasmiy sayti – www.namangan.uz